

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ARAB TILI NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

Sattarova Husniya

**ARAB TILIDA I BOB FE‘LI VA UNING LUG‘AVIY-MA‘NOVIY
XUSUSIYATLARI**

**5120501 – filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) ta‘lim yo‘nalishi
bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

“Arab tili nazariyasi va amaliyoti”

Kafedra mudiri f.f.n., dots A.Turobov

“ ___ ” _____ 2017 yil

ILMIY RAHBAR:

f.f.n., dots A.Yo‘ldoshev

“ ___ ” _____ 2017 yil

Samarqand – 2017

MUNDARIJA

KIRISH	3
1- BOB. ARAB TILIDA FE`L SO`Z TURKUMI HAQIDA UMUMIY MA`LUMOT	
1.1. Arab tilida fe`l so`z turkumi va uning sinflanishi.....	6
1.2. I bob fe`li va uning arab tili grammatikasidagi ahamiyati.....	15
2-BOB. I BOB FE`LLARINING LUG`AVIY-MA`NOVIY XUSUSIYATLARI	
2.1. I bob fe`llarining o`ziga hos va lug`aviy ma`no xususiyatlari.....	37
2.2. Arab tilida I bob fe`llarining matnlarda anglatgan ma`nolari.....	42
XULOSA.....	47
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	49

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Har bir rivojlangan davlat iqtisod, siyosat, ma`daniyat va inson hayotidagi barcha ijtimoiy sohalarda jahonda ilg`or bo`lishga harakat qiladi. Shu o`rinda bu sohalarda yetakchi bo`lishga turtki beradigan asos bu ilm-fan tarqqiyotidir. Ilm-fanning rivojiga alohida e`tabor beriladi. Bizning yurtimizda ham hozirgi kunda yoshlar barcha sohalarda yetakchi. Bu ma`noda ilm-fan tillarni muvaffaqiyatli o`rganishda ham, ta`limni rivojlantirish hamda umuman kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida ham, eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” Qaroridan¹ kelib chiqib, mamlakatda «Ta`lim to`g`risida»gi Qonunini² hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o`qitishning kompleks tizimi, ya`ni uyg`un kamol topgan, o`qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, o`sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o`qitish, shu tillarda erkin so`zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizasiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko`lamda foydalanishlarini hisobga olib, chet tillarni tadqiq qilishga bag`ishlangan ilmiy ishlarga keng e`tibor berilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek:«Biz tarixiy xalq an`analari, urf-odatlar va marosimlari asosida odamlar ongini shakllantirish omillarini kuchaytirishimiz zarur»³.

Ayniqsa dunyo tillarini o`rganish, shu tilda gaplashish va xorijiy tillardan o`zbek tiliga tarjima ishlari bilan shug`ullanishga qiziqishlari baland. Dunyo tillari ichidan bizning ajdodlarimizning qonidan bizning qonimizga meros sifatida o`tib

¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidentni Qarori. “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”. Toshkent. – 10.12.2012.

² Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent: “Sharq”, 1997. 34-bet.

³ Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: “O`zbekiston”, 2011. 275-bet.

manbaa titkilashga undayotgan til arab tilining ahamiyati beqiyosdir. Arab tili dunyo tillari ichida o`zining grammatik qurilishi va fonetik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun arab tilini o`rganishda biroz qiyinchilik yuzaga keladi. Chunki arab tilining grammatikasi, fonetikasi, ichki tuzulishi boyligi, o`rganuvchini biroz chalg`itishi mumkin. Shuningdek fe`l so`z turkumi arab tili grammatikasida katta o`rinni egallaydi. Biz bilamiz fe`lsiz muloqotga kirishishning iloji yo`q. Bu bitiruv malakaviy ishida arab tilida fe`l so`z turkumi, uning nazariy va amaliy ahamiyati, mazmuni, mohiyati, guruhlanishi, tuslanishdagi o`ziga xoslik, lug`aviy-ma`noviy xususiyatlariga alohida to`xtalib o`tganman.

Mavzuning oldiga qo`ygan maqsadi va undan kelib chiqadigan vazifalar.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi sifatida arab tilida fe`l so`z turkumi, uning tahlil yo`nalishlari, ilmiy farazlar bilan aloqador nazariy va amaliy masalalarni batafsil o`rganib chiqish asosida arab tilida fe`llarinng ilmiy asoslarini yaratishdan iboratdir. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun arab tilida fe`llarining quyidagi mundarijasi bo`yicha tahlil qilish vazifasi belgilandi:

- arab tilida fe`l so`z turkumi morfologik tadqiqiga doir nazariy ma`lumotlarni jamlash va tahlil qilish;

- arab tilida fe`l so`z turkumi mazmun mutonosibligi, uning simmetriklik qonuniyatlar bilan bog`liqligi masalasini tadqiq etish;

- arab tilida fe`l so`z turkumi mazmuni va uning tiplari, tilda grammatik kategoriya tushunchasi va uning yasalish usullari haqida tahliliy mulohazalar bayon qilish;

- arab tilida fe`llarning ilmiy-amaliy asoslarini tadqiq etish va ularga doir xulosalar bayon etish;

- arab tilida fe`llarni matnlarda kelgan misollar asosida tahlil qilish;

- arab tilidagi fe`llarning lug`atdagi ma`nolari va ularning o`ziga xosligini aniqlash;

Mavzuning o`rganilganlik darajasi. Fe`llar va ularning o`ziga xos xususiyatlariborasida dastlabki izlanishlar umumiy tilshunoslikda V.fon Gumbold,

F.de Sossyur , A.A.Potebnya, kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Arab tilshunosligida Belova A.G., M Mamatxonova D.Q, Nosirova M.A., Belkin V.M., Imomxo'jaev O., Ibrohimov N.I., Yusupov M., Kovalev A.A., Sharbatov G.SH., Rojdestvenskiy Yu.V., Sulaymonova F., Filshtinskiy I.M., Shifdar B.YA., Xasanov A.A., Shagal V.Z, Xasanov M., Abzalov M., Baranov X.K, Barisov V.M. kabi olimlarning kuzatishlari shular jumlasidandir.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishning asosiy til materialini arab tilida fe'l so'z turkumiga oid adabiyotlar, izohli lug'atlar, qisman badiiy adabiyotdan to'plangan faktik materiallar tashkil etadi. Shuningdek, tahlil jarayonida arab tili so'zlashuv nutqiga xos ayrim til birliklaridan ham foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Faktik til materialining tahlili jarayonida quyidagi yangiliklarga erishildi:

- arab tilida fe'l so'z turkumi murakkab hodisa ekanligi dalillandi;
- arab tilida fe'l so'z turkumi tipologiyasining lingvistik adabiyotlarda bayon qilingan fikrlar umumlashtirilgan holda mavzuning tadqiqot tadriji aniqlandi;
- fe'llar morfologik shakllari arab tilidan to'plangan misollar asosida o'rganildi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 51 bet.

1- BOB. ARAB TILIDA FE`L SO`Z TURKUMI HAQIDA UMUMIY MA`LUMOT

1.1. Arab tilida fe`l so`z turkumi va uning tarkiblanishi

Arab nahvshunoslari arab tilidagi barcha so`zlarni asosan uchta katta guruhga bo`lib o`rganadilar. Ular: **إِسْمٌ** – ism: ot, sifatdosh, son, masdar, sifat, olmoshlar; **فِعْلٌ** – fe`l: fe`lning zamonlari va mayillari; **حَرْفٌ** – yordamchi so`zlar. Bular orasida fe`llar arab tili grammatikasida asosiy o`rinni egallaydi. Chunki arab tilidagi juda ko`p ismlar ham asosan fe`l o`zagidan yasaladi. Boshqa tillardagi kabi arab tilida ham predmetning ish-harakatini ifodalaydigan mustaqil so`zlar fe`l deyiladi. Fe`l turkumiga oid barcha so`zlar uchun umumiy xususiyat zamon bilan bog`liq holda yuz beruvchi hodisani ifodalashdir. Ana shu umumiy xususiyatga ko`ra fe`llarning barchasi bir umumiy so`roqqa nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi? so`rog`iga javob bo`ladi. Fe`llar boshqa so`zlarga nisbatan leksik-semantik va grammatik xususiyatlari jihatidan nihoyatda murakkabdir.⁴ O`zbek tilida fe`llar tuslanayotganda shaxs zamon qo`shimchalari faqat fe`ldan keyin qo`shiladi. Arab tilida esa prefiks va shaxs, son qo`shimchalari bilan hozirgi zamon ifodalanadi. Fe`l so`z turkumi arab grammatikasining asosiy bo`g`ini sifatida olinadi. Chunki kundalik hayotimizda yoki kunlik so`zlashuvimizda har bir gapirgan gapimiz yoki bajaradigan ishimiz hohlaymizmi yo`qmi zamonga ishora qiladi. Fe`l bir zamonda bir ishni ishlaganiga dalolat qilgan ya`ni zamonga dalolat qilgan kalimadir. Masalan:

صَرَبَ، كَتَبَ، لَيْسَ، يَصْرِبُ، يَكْتُبُ، يَلَيْسُ، اَصْرِبُ، اَكْتُبُ، اَلَيْسَ

Arab tilida fe`l o`zining shaxs va sonda tuslanishi bilan ajralib turadi. Arab nahvchilari fe`lni ism va yuklamalarga qarama qarshi qo`yadilar.⁵ Misrlik mashhur nahvshunos olimlardan biri Abdul Aziz Muhammad Fohir o`zining “توضيح النحو”, ya`ni “Grammatikani sharhlash” nomli nahvga oid asarida shunday yozadi:

⁴Shoabduraxmonov Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –T., 1980. –B. 32

⁵Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. М., 2001. С.116

و الفعل: ما دل على معنى في نفسه مقترنا بزمان, سواء كان وقوع هذا المعنى في الزمان الماضي, او في الحال ام في المستقبل⁶

Ya'ni: Fe'l o'zida zamonning ma'nosigi dalolat qiladi va bu ma'no o'tgan, hozirgi yoki kelasi zamonda sodir bo'lishi mumkin.

Arab tilida ham fe'ning shu va shu kabi xususiyatlari haqida Livanlik mashhur tilshunos olim Antuan ad-Dahdah o'zining "مُعْجَمُ لُغَةِ النَّحْوِ الْعَرَبِيِّ" – ya'ni "Arab tili grammatikasining alifbo tartibi" nomli asarida quyidagi fikrlarni shunday izohlaydi:

"فعلٌ – كلمةٌ تَدُلُّ على أمرَيْنِ معًا، حالةٍ أو حَدَثٍ و على زمنٍ يقترنُ بهما:

ضرب.

و يتميزُّ الفعل في القواعد بموضوعين مختلفين: أنواعه و أحواله.

1- في أنواعه، يقسمُ الفعل الى قسمين رئيسيين، الفعلُ التَّامُّ: كتب: و الفعلُ

التَّاقِصُّ: كان.

و يقسمُ الفعل التَّام الى قسمين الفعل المتعدِّي : قطفَ.

و الفعل اللازم: جلس. و يقسم الفعل المتعدِّي الى قسمين الفعل المعلوم:

سرق. و الفعلُ المجهول: سُرِقَ.

2- في أحواله، يشملُ الفعلُ الأوضاعَ الآتيةَ: الصِّيغَةُ ماضٍ، مضارعٌ و أمرٌ. الزمنُ:

ماضٍ، حاضرٌ و مستقبلٌ. الوزنُ: مجردٌ ثلاثيٌّ/ مزيدٌ ثلاثيٌّ، مجردٌ رباعيٌّ، و مزيدٌ

رباعيٌّ. العلةُ: صحيحٌ و معتلٌ. العملُ: عامِلٌ ز مكفوفٌ. الإثباتُ: مثبتٌ، و منْفِيٌّ.

التَّكْيِيدُ: مؤكَّدٌ، و غير مؤكَّدٌ. الإعرابُ: معرَبٌ، و مبنيٌّ. التَّصْرِيْفُ: متصرِّفٌ و جامدٌ. "⁷

Ya'ni: Fe'llar shunday so'zlarki ular bir vaqtning o'zida ikki narsa: holatga va voqea-hodisaga ishora qiladi, binobarin ish-harakatni ifodalaydi, shuningdek u zamonga bog'liq bo'ladi. Masalan: ضَرَبَ – urdi kabi. Fe'llar grammatik qoidalarda 2 xil mazmun bilan ajralib turadi:

Ular turlari va holati bo'yicha:

عبد العزيز محمد فاخر. توضيح النحو. الجزء الاول. مصر. القاهرة. الازهار. 1995. ص. 69
انطوانالدحاح. معجمُ لُغَةِ النَّحْوِ الْعَرَبِيِّ. ص. 228.

I. Turlari bo'yicha: turlari bo'yicha fe'llar 2 asosiy qismga bo'linadi, "bo'lmoq" ma'nosidagi to'liq fe'llar, masalan: كَتَبَ – yozmoq; va noqis fe'llar – كَانَ kabi.

To'liq ma'nodagi fe'llar ham o'z navbatida ikkiga bo'linadi: o'timli fe'llar: masalan: قَطَفَ – termoq, va o'timsiz fe'llar: masalan: جَلَسَ – o'tirmoq kabi. O'timli fe'llar ham ikki xil bo'ladi. Aniq darajadagi, masalan: سَرَقَ – o'g'irladi va majhul darajadagi masalan: سُرِقَ – o'g'irlandi kabi.

II. Holati bo'yicha: holati bo'yicha fe'llar o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- 1) Fe'lning siyg'alari bo'ladi: o'tgan zamon, kelasi zamon va buyruq mayli.
- 2) Ular uchta zamonda; o'tgan, hozirgi va kelasi zamonda tuslanadi.
- 3) Fe'lning vaznlari bo'ladi; uch o'zakli va to'rt o'zakli.
- 4) Fe'llarning to'g'ri yoki noto'g'riligi bo'yicha: sog'lom fe'llar va tarkibida illat harflar bo'lgan kasal fe'llar.
- 5) Fe'lning ishlatilishi bo'yicha: tuslanadigan va tuslanmaydigan fe'llar ya'ni shaklini o'zgartiradigan yoki shaklini o'zgartirmaydigan fe'llar.
- 6) Isboti bo'yicha: bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar.
- 7) Tasdiqlanishi bo'yicha: tasdiq yoki tasdiq bo'lmagan, notasdiq ma'nosidagi fe'llar.
- 8) E'roblanishi bo'yicha: oxirgi harakatlari o'zgaradigan (o'zgaruvchi) va o'zgarmaydigan mabniy fe'llar.
- 9) O'zgaruvchanligi bo'yicha: ya'ni fe'lning ichki tuzilishi (fleksiyasi) o'zgaradigan va o'zgarmaydigan fe'llar.

Arab tilidagi fe'llarning yuqorida zikr qilingan xususiyatlariga qo'shimcha qilib, ularni yanada umumlashtirilgan holda yana quyidagilarni aytishimiz mumkin: demak, arab tilida fe'llar mustaqil so'z turkumi bo'lib, ularning har birining mustaqil ma'nosi bo'ladi, ular uchta zamonning biriga dalolat qiladi, shaxslarda-birlik, ikkilik va ko'plik sonlarda tuslanadi, اَل – aniqlik artiklini qabul

qilmaydi, izofaga kira olmaydi, arab tilida fe'llarning boblari bo'lib, infinitiv shakldagi I bob fe'lining ma'nosi boshqa boblarda o'zgacha ma'no ahamiyat kasb etadi.

Arab tilidagi fe'llar o'zlarining shu va shu kabi boshqa xususiyatlari bilan boshqa so'z turkumlari ishtirokida o'zaro sintaktik munosabatga kirishadi va gaplarni vujudga kelishida eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Arab tilida fe'llar uch zamonda bo'ladi:

ماضي – o'tgan zamon

مُضَارِعٌ – hozirgi-kelasi zamon

أَمْرٌ – buyruq

Uch shaxsda bo'ladi:

1-shaxs-مُتَكَلِّمٌ-so'zlovchi

2-shaxs-مُخَاطَبٌ-tinglovchi

3-shaxs-غَائِبٌ- o'zga

Fe'llar ikki jinsda tuslanadi:

مُذَكَّرٌ- muzakkar jinsi

مُؤَنَّثٌ- muannas jinsi

Va quyidagi son kategoriyalari bo'yicha tuslanadi:

مُفْرَدٌ- Birlik

تَنْبِيْهٌ- ikkilik

جَمْعٌ- Ko'plik⁸

Ish-harakatning so'z aytilgan zamondan avval bajarilganini anglatgan kalimaga مَاضِيٌّ فِعْلٌ o'tgan zamon fe'li deb ataladi. O'tgan zamon fe'li ish-harakatning bajaruvchisiga qarab 14 suratda tuslanadi. Fe'li moziyni tuslovchi shaxs qo'shimchalari quyidagi tartibda bo'ladi:

	غَائِبٌ	مُخَاطَبٌ	مُتَكَلِّمٌ
--	---------	-----------	-------------

⁸ Абдуллоҳмон ибн Исмоил ибн Умар. Араб тили сарф муаллими. – Т., 2013. 4-5 бет.

	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	
مُفْرَدٌ	ـَ	ـَ	ـَ	ـَ	ـَ
تَثْنِيَّةٌ	ـَا	ـَا	ـَا		
جَمْعٌ	ـُوا	ـَا	ـُومٌ	ـُوتٌ	ـَا

ضَرَبَ – (urmoq) fe`lining tuslanishi

	غَابٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	ضَرَبْتُ
مُفْرَدٌ	ضَرَبَ	ضَرَبَتْ	ضَرَبْتَ	ضَرَبْتِ	
تَثْنِيَّةٌ	ضَرَبَا	ضَرَبْتَا	ضَرَبْتُمَا		ضَرَبْنَا
جَمْعٌ	ضَرَبُوا	ضَرَبْنَا	ضَرَبْتُمْ	ضَرَبْتُنَّ	

Ish-harakatning so`z aytilgan zamonda bajarilganini yoki keyin bajarilishini anglatgan kalimaga مُضَارِعٌ فِعْلٌ hozirgi-kelasi zamon fe`li deb ataladi. Hozirgi-kelasi zamon fe`li ish-harakatning bajaruvchisiga qarab 14 suratda tuslanadi. Fe`li muzoriyni tuslovchi shaxs qo`shimchalari quyidagi tartibda bo`ladi:

	غَابٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	أ...ُ
مُفْرَدٌ	ي...ُ	ت...ُ	ت...ُ	ت...ِينَ	
تَثْنِيَّةٌ	ي...انِ	ت...انِ	ت...انِ		ن...ُ

جَمَعٌ	ي...وَنَ	ي...نَ	ت...وَنَ	ت...وَنَ	
--------	----------	--------	----------	----------	--

يَضْرِبُ – (urmoq) fe`lining tuslanishi

	غَايِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	أَضْرَبُ
	يَضْرِبُ	تَضْرِبُ	تَضْرِبُ	تَضْرِبِينَ	
تَثْنِيَّةٌ	يَضْرِبَانِ	تَضْرِبَانِ	تَضْرِبَانِ		نَضْرِبُ
جَمَعٌ	يَضْرِبُونَ	يَضْرِبْنَ	تَضْرِبُونَ	تَضْرِبُونَ	

Arab tili grammatikasidagi o`ziga xos jihatlardan biri bu **أَمْرٌ** buyruqni zamon kategoriyasiga kiritishi. Buyruq 6 ta suratda tuslanadi.

Arab tilida fe'llarning o`qimoq, bormoq kabi noaniq (infinitive) shakllari yo`q. Lug`atlarda, o`quv qo`llanmalarda noaniq shakli – infinitive o`rnida fe'lining eng oddiy shakli o`tgan zamon aniq nisbat III shaxs birlik muzakkar shakli ishlatiladi. Masalan:

كَتَبَ -aslida „u (muzakkar) yozdi” ni anglatadi.

Faqat lug`atlar va o`quv qo`llanmalaridagina „yozmoq“ ma`nosida ishlatilishi mumkin. Arab tilida fe`llar ikki turga bo`linadi:

1.Qisqa fe`llar- **فِعْلٌ قَصِيرٌ**

2.Uzun fe`llar- - **فِعْلٌ طَوِيلٌ**

Qisqa fe`llar bu o`tgan zamon uch o`zak undoshli fe`llarga aytiladi.

Masalan: **ضَرَبَ، كَتَبَ، لَيْسَ**

Uzun fe`llar o`tgan zamon siyg`asi to`rt, besh va oltita harfli fe`llarga aytiladi.⁹

Masalan: اِكْرَمَ، عَلَّمَ، تَعَلَّمَ، اجْتَمَعَ، اسْتَغْفَرَ

Fe`llar o`tgan va hozirgi-kelasi zamon siyg`alari bilan 22 ta bobda ifodalanadi. 22 bob to`rt qismga bo`linadi:

1. Sulosiy mujarrad- Qo`shimchasiz uch harfli fe`llardir.

Arab tilida fe`llarning o`zagi asosan uch undosh (فعل) dan iborat bo`ladi. Arab tadqiqotchilari uch o`zak undoshli fe`lning boshlang`ich shaklini مجرد فعل ثلاثى deb atashadi.

Qisqa fe`llar ham o`z o`rnida quyidagi boblarga guruhlangan:

فَعَلَ - يَفْعُلُ - فَعُلٌ - نَصَرَ - يَنْصُرُ - نَصْرٌ
فَعَلَ - يَفْعِلُ - فَعِلٌ - ضَرَبَ - يَضْرِبُ - ضَرْبٌ
فَعَلَ - يَفْعَلُ - فَعَلٌ - مَدَحَ - يَمْدَحُ - مَدْحٌ
فَعَلَ - يَفْعَلُ - فَعِلٌ - عَلِمَ - يَعْلَمُ - عِلْمٌ
فَعَلَ - يَفْعُلُ - فَعُلٌ - بَصَرَ - يَبْصُرُ - بَصْرٌ
فَعَلَ - يَفْعِلُ - فَعِلٌ - عَرَفَ - يَعْرِفُ - عِرْفَانٌ

2. Sulosiy mazid- Qo`shimchali uch harfli fe`llar.

Noo`zak harflarning qo`shilishi va fe`lning boshqa boblari va boshqa shakllari yasalishi natijasida ثلاثى مزيدٌ yasaladi. Masalan: يَكْتُبُ، يَلْبِسُ.

Uzun fe`llar quyidagi boblarga guruhlanadi:

اَفْعَلَ - يُفْعِلُ - اَفْعَالٌ - اَكْرَمَ - يُكْرِمُ - اِكْرَامٌ
فَعَلَ - يُفْعِلُ - تَفْعِيلٌ - عَلَّمَ - يُعَلِّمُ - تَعْلِيمٌ
تَفَعَّلَ - يَتَفَعَّلُ - تَفَعُّلٌ - تَعَلَّمَ - يَتَعَلَّمُ - تَعَلُّمٌ
فَاعَلَ - يُفَاعِلُ - مُفَاعَلَةٌ - جَالَسَ - يُجَالِسُ - مُجَالَسَةٌ
تَفَاعَلَ - يَتَفَاعَلُ - تَفَاعُلٌ - تَبَاعَدَ - يَتَبَاعَدُ - تَبَاعُدٌ
اِفْتَعَلَ - يَفْتَعِلُ - اِفْتِعَالٌ - اجْتَمَعَ - يَجْتَمِعُ - اجْتِمَاعٌ
اِنْفَعَلَ - يَنْفَعِلُ - اِنْفِعَالٌ - اِنْكَسَرَ - يَنْكَسِرُ - اِنْكَسَارٌ

⁹ Абдуллоҳмон ибн Исмоил ибн Умар. Араб тили сарф муаллими. – Т., 2013. 2-бет.

اِسْتَفْعَلَ - يَسْتَفْعِلُ - اِسْتَفْعَالٌ - اِسْتَغْفَرَ - يَسْتَغْفِرُ - اِسْتَغْفَارٌ
 اِفْعَلَّ - يَفْعَلُّ - اِفْعَالٌ - اِحْمَرَ - يَحْمَرُّ - اِحْمِرَارٌ
 اِفْعَوَلَ - يَفْعَوِلُ - اِفْعِيْعَالٌ - اِعْشَوْشَبَ - يَعْشَوْشِبُ - اِعْشِيْشَابٌ
 اِفْعَالَ - يَفْعَالُ - اِفْعِيْلَالٌ - اِحْمَارٌ - يَحْمَارُ - اِحْمِيْرَارٌ
 اِفْعَوَّلَ - يَفْعَوِّلُ - اِفْعَوَّالٌ - اِجْلَوَزَ - يَجْلُوْزُ - اِجْلَوَّازٌ

3. Rubo`iy mujarrad- Qo`shimchasiz to`rt harfli fe`llardir.

To`rt undoshdan iborat fe`l o`zaklari (فعل), to`rt o`zak undoshli fe`lning boshlang`ich shaklini esa - فعل رباعى مجرد (fi`lun ruba`iyyun mujarradun) deb atashgan.

Rubo`iy mujarrad:

فَعَلَ - يَفْعَلُ - فَعْلَةٌ - دَخَرَ - يُدَخِرُ - دَخْرَةٌ

4. Rubo`iy mazid- Qo`shimchali to`rt harfli fe`llardir.

Rubo`iy mazid:

تَفَعَّلَ - يَتَفَعَّلُ - تَفَعَّلٌ - تَدَخَرَ - يَتَدَخَرُ - تَدَخْرٌ
 اِفْعَنَّالَ - يَفْعَنَّالُ - اِفْعَنَّالٌ - اِحْرَنْجَمَ - يَحْرَنْجِمُ - اِحْرَنْجَامٌ
 اِفْعَلَّلَ - يَفْعَلِّلُ - اِفْعَلَّلَالٌ - اِفْشَعَّرَ - يَفْشَعِّرُ - اِفْشِعْرَارٌ

Fe`lning vaznini o`zgartirib, ya`ni o`zak undoshlariga boshqa undosh, unlilar qo`shib, o`zlik, ortirma nisbatlar, o`timlili, o`timsizlik va boshqa ma`nolarni ifoda etadigan yangi vazn negizlar yasaladi. Fe`llar ilgari aytganimizdek, uch o`zak undoshli va to`rt o`zak undoshlilarga bo`linadi va ularning ko`pchiligini uch o`zak undoshli fe`llar tashkil etadi. Bu o`zak undoshlar atrofidagi unlilarni o`zgartirish, u yoki bu o`zak undoshni ikkilantirish, biror noo`zak undoshni kiritish yo`li bilan fe`llarning hosila shakllari yasaladi. Hosila shakldagi fe`llarning, tabiiyki mazmunida ham o`zgarish sodir bo`ladi. Hosila shakllarni boblar deb atash qabul qilingan. Uch o`zak undoshli fe`llarning 15 ta, to`rt o`zak undoshli fe`llarning 4 ta bobi mavjud. Uch o`zak undoshli fe`llar arab tilida fe`llarning asosiy qismini tashkil etadi. Uning hammasi bo`lib o`n besh bobi mavjud. Shundan o`n bobi

hozirgi arab adabiy tilida aktiv ishtirok etadi. Qolgan besh bobi esa qadimgi arab tilida keng ishlatilgan, lekin keyinchalik iste'moldan chiqib ketgan.

Uch o`zak undoshli fe`llar:

I-bob	فَعَلَ	IX-bob	إِفْعَلَّ
II-bob	فَعَّلَ	X-bob	إِسْتَفْعَلَ
III-bob	فَاعَلَ	XI-bob	إِفْعَالًا
IV-bob	أَفْعَلَ	XII-bob	إِفْعَوْعَلَ
V-bob	تَفَعَّلَ	XIII-bob	إِفْعَوَّلَ
VI-bob	تَفَاعَلَ	XIV-bob	إِفْعَنْلَلَ
VII-bob	إِنْفَعَلَ	XV-bob	إِفْعَنْلَى
VIII-bob	إِفْتَعَلَ		

To`rt o`zak undoshli fe`llar:

I-bob	فَعَّلَلَّ
II-bob	تَفَعَّلَلَّ
III-bob	إِفْعَنْلَلَّ
IV-bob	إِفْعَلَّلَّ ¹⁰

To`rt o`zak undoshli fe'llarning hosil bo'lish yo'llari quyidagicha:

1. Ikki undoshdan iborat taqlidiy so'zlarni ikki marta takrorlash yo'li bilan.

Masalan:

وسوس - vasvasa solmoq

زلزل - silkitmoq

قهقهه - qahqaha otmoq

2. Uch undosh o`zakli fe'llar ikkinchi bobidagi ikkilanganlardan birining boshqa undoshga o'zgarishi (dissimilyatsiya) yo'li bilan.

Masalan:

درج - jildirmoq

دحرج - qildiratmoq

¹⁰ Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М., 2001. С. 122.

زَلَّق - silliqilamoq

زحلَق - sirqalmoq

3. Horijiy tillardan kirgan to'rt o'zak undoshli otlardan hosil bo'ladi.

Masalan:

فلسفة - falsafa فلسف - faylasuflik qilmoq

4. Ayrim ibora yoki birikmalarni tashkil etgan asosiy harflardan qisqartma shaklida hosil qilingan to'rt o'zak undoshdan hosil bo'ladi.

Masalan:

بِسمَل - «Bismilloxir rahmonir rahiym» demoq.

To'rt o'zakli fe'llar orasida ikkilangan fe'llar umuman uchramaydi. Hamzali fe'llar, shuningdek, tarkibida illatli harf mavjud bo'lgan fe'llar esa to'g'ri fe'llar qatori uchrab turadi. Lekin bu fe'llarda illatli harflarga illatli harf sifatida

Masalan:

أمرَك - Amerikalashtirmoq

هرول - yugurmoq

سيطر - hukmron bo'lmoq

شيطان - yomonlik qilmoq

دهون - yo'rqalamoq

1.2. I bob fe'li va uning arab tili grammatikasidagi ahamiyati

Yuqorida aytib o'tganimizdek arab tilida fe'llar o'zlarining guruhlanishi va har bir guruhlanish natijasida fe'llarning ma'no xususiyati o'zgarib borishi bilan xarakterlidir. Guruhlar tartibga solingan holda bob deb nomlanadi. Zamonaviy arab adabiyotida fe'llarning 10 bobi amalda tilda muomila nutqida ishlatilmoqda. 5 bob eskirgan fe'l boblari sifatida hozirgi kunda foydalanilmayapti. Arab adabiy tilidagi dastlabki bob 1 bob fe'li bo'lib, bu bob qolgan boblar uchun asos bo'lib xizmat

qiladi, ya`ni fe`llarning dastlabki shakli hisoblanadi. Arab tilida fe`llarning tarkibida illatli harflar bo`lishi yoki bo`lmasligi bilan ular ikki guruhga bo`linadi:

1. To`g`ri fe`llar (الفعل الصحيح)
2. Noto`g`ri fe`llar (الفعل المعتل)

To`g`ri fe`llar bu asl harflarida ya`ni o`zak harflarida illatli harf bo`lmagan fe`llarga aytiladi. To`g`ri fe`llar uch guruhga bo`linadi:

1. Solim fe`l (الفعل السالم)
2. Mahmuz fe`l (الفعل المهموز)
3. Muzo`af fe`l (الفعل المضعفة)¹¹

الفعل السالم

Fe`l o`zagining ف si, ع ni va جi o`rnida harfi illat (kasal harflar) va bir turdagi ikki harf yonma-yon bo`lmagan bo`lsa bu turdagi fe`llarga “solim fe`llar” deyiladi. Solim fe`llar o`tgan va hozirgi-kelasi zamonda tuslanadi, shuningdek ularning inkor va majhul nisbat shakllari mavjud.

كَتَبَ - yozdi - فَعَلَ - vaznida

يَضْرِبُ - uryapti - يَفْعَلُ - vaznida

(كَتَبَ) fe'lining o`tgan zamonda tuslanishi:

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مُذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مُذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	كَتَبْتُ
	كَتَبَ	كَتَبَتْ	كَتَبْتَ	كَتَبْتِ	
تَنْبِيْهٌ	كَتَبَا	كَتَبْتَا	كَتَبْتُمَا		كَتَبْنَا

¹¹ Иброҳимов Н.И., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. Т., 1997. 82-бет.

جَمَعٌ	كَتَبُوا	كَتَبْنَ	كَتَبْتُمْ	كَتَبْتُنَّ	
--------	----------	----------	------------	-------------	--

(كَتَبَ) fe'lining hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	أَكْتُبُ
	يَكْتُبُ	تَكْتُبُ	تَكْتُبُ	تَكْتُبِينَ	
تَنْبِيْهٌ	يَكْتُبَانِ	تَكْتُبَانِ	تَكْتُبَانِ		نَكْتُبُ
جَمَعٌ	يَكْتُبُونَ	يَكْتُبْنَ	تَكْتُبُونَ	تَكْتُبْنَ	

Yuqorida bir fe'ning o'tgan va hozirgi-kelasi zamonda shaxslarda tuslanishini ko'rib chiqdik. Ularning ma'nosi yozmoq fe'lining shaxslarda tuslanishi kabi tarjima qilinadi. Ma'no xususiyatlariga keying bobda alohida to'xtalib o'tamiz.

الفعل المهموز

O'zak tarkibida hamza tovushi ishtirok etgan fe'l المهموز (alfilu mahmuz) hamzali fe'l deyiladi. Hamza fe'ning qaysi o'zak undoshi o'rnida kelishiga qarab, bu fe'llar uch turga bo'linadi:

I. Birinchi o'zak undoshi ya'ni ف si o'rnida hamza kelgan fe'llar مهموز الفاء (mahmuzul fa) deb nomlanadi. Masalan:

أَسْفُ olmoq

أَمَلُ so'ramoq

أسر o'qimoq¹²

Bularning o'tgan zamonda tuslanishi solim fe'lardan farq qilmaydi.

Masalan:

(أَمَرَ) fe'lining o'tgan zamonda tuslanishi:

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	أَمَرَ
	أَمَرَ	أَمَرَتْ	أَمَرَ	أَمَرَتْ	
تَشْبِيهٌ	أَمَرَا	أَمَرَتَا	أَمَرْتُمَا		أَمَرْنَا
جَمْعٌ	أَمَرُوا	أَمَرْنَ	أَمَرْتُمْ	أَمَرْتُنَّ	

Birinchi o'zak undoshi hamzali bo'lgan fe'llarning hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi solim fe'llardan farq qilmaydi. Faqat fe'lning boshida qisqa unliidan iborat bo'lgan bir yopiq bo'g'in tarkibida ikkita hamza tovushining mavjud bo'lishi mumkin emas. Agar shunday holat mavjud bo'lsa, ikkinchi hamza tushib qoladi va uning hisobiga qisqa unli cho'ziqqa aylanadi.¹³

(يَأْمُرُ) fe'lining hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi:

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	أَمَرَ

¹² Лебедев В.Г. Чурева Л.С. Практический курс арабского литературного языка. 1- част. М., 2005. С. 104.

¹³ Иброхимов Н.И., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. Т., 1997. 92-бет.

	يَأْمُرُ	تَأْمُرُ	تَأْمُرُ	تَأْمُرِينَ	
تَنْبِيْهٌ	يَأْمُرَانِ	تَأْمُرَانِ	تَأْمُرَانِ		نَأْمُرُ
جَمْعٌ	يَأْمُرُونَ	يَأْمُرْنَ	تَأْمُرُونَ	تَأْمُرْنَ	

II. Ikkinchisi o'zak undoshi ya'ni ع o`rnida hamza kelgan fe'llar مهموز العین (mahmuzul ayn) deb nomlanadi.

Masalan:

فَاد - qamrab olmoq

سَأَلَ - so'ramoq

ثَارَ - qasos olmoq

Bularning tuslanishi han solim fe'llardan farq qilmaydi. Masalan:

(سَأَلَ) fe'lining o'tgan zamonda tuslanishi:

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	سَأَلْتُ
	سَأَلَ	سَأَلَتْ	سَأَلْتِ	سَأَلْتِ	
تَنْبِيْهٌ	سَأَلَا	سَأَلْتَا	سَأَلْتُمَا		سَأَلْنَا
جَمْعٌ	سَأَلُوا	سَأَلْنَ	سَأَلْتُمْ	سَأَلْتُنَّ	

(سَأَلَ) fe'lining hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi:

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	أَسْأَلُ
	يَسْأَلُ	تَسْأَلُ	تَسْأَلُ	تَسْأَلِينَ	
تَثْنِيَةٌ	يَسْأَلَانِ	تَسْأَلَانِ	تَسْأَلَانِ		نَسْأَلُ
جَمْعٌ	يَسْأَلُونَ	يَسْأَلْنَ	تَسْأَلُونَ	تَسْأَلْنَ	

III. Uchunchi o`zak undoshi hamzadan iborat fe`llar مهموز اللّم (mahmuzul lom) deb nomlanadi.

قَرَأَ – o`qimoq

جَرَوُ – jur`tli bo`lmoq

خَبَأَ – yashirinmoq

Bunday fe`llar turida halqumdan portlab chiquvchi tovush o`zakning oxirgi undoshi bo`ladi. Yuqorida ko`rilgan hamzaga taglik bo`luvchi harflardagidan ko`ra bu yerda taglik harflar ko`proq o`zgarishlarga uchraydi. Bunda fe`llarda hamza so`zning oxirida turishi yoki o`zidan keyin affikslarni olib kelishi mumkin. Bundan tashqari hamzadan oldin I bobda har xil harakatga ega ikkinchi o`zak fe`li bor. Bularni barchasi orforgrafiya yaqqol ko`zga tashlanadi. Masalan: يَهْنِيُّ، يقرأ، يبطؤ

Bu fe`llar shaxs sonda tuslanganida hamza tovushi imlo qoidalari asosida ayrim o`zgarishlar sodir bo`ladi. Masalan:

(قَرَأَ) fe`lining o`tgan zamonda tuslanishi:

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	قَرَأَتْ
	قَرَأَ	قَرَأَتْ	قَرَأَ	قَرَأَتْ	
تَشْبِيهٌ	قَرَأَ	قَرَأَاتَا	قَرَأَتُمَا		قَرَأْنَا
جَمْعٌ	قَرَأُوا	قَرَأَانَ	قَرَأْتُمْ	قَرَأْتُنَّ	

(قَرَأَ) fe'lining hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi:

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	أَقْرَأَ
	يَقْرَأُ	تَقْرَأُ	تَقْرَأُ	تَقْرَأِينَ	
تَشْبِيهٌ	يَقْرَأَنِ	تَقْرَأَنِ	تَقْرَأَنِ		تَقْرَأُ
جَمْعٌ	يَقْرَأُونَ	يَقْرَأَانَ	تَقْرَأُونَ	تَقْرَأَانَ	

Bunday fe'llardan boshqa boblarni yasaganda I bobga nisbatan kamroq orfografik ta'sirlarga uchraydi. Majhul nisbatda hamza ikkinchi undoshning harakatiga mos taglikka ega bo'ladi. قَرِئٌ Hozirgi-kelasi zamonda esa ikkinchi o'zak harfning harakati bo'lmish 'fatha' ga mos taglik harf oladi. يُقْرَأُ. 5 va 6-

boblardan tashqari barcha boblarning hozirgi-kelasi zamoni ikkinchi o'zak harfning harakati bo'lmish 'kasra'ga mos taglik oladi, 5 va 6-boblar esa 'fatha'ga mos ravishda bo'ladi¹⁴. نَهَيْتُ، نَهَيْتُ

الأفعال المضعفة

Fe'l o'zagining ikkinchi ع ni va uchinchi ل i bir xil bo'lgan harflar mavjud bo'lsa, bunday fe'llarga الأفعال المضعفة (alfilu almudo`fu) ikkilangan fe'llar deyiladi. Ularni har ikki zamonda tushlashda yoki ismiy shakllarini hosil qilishda bu undoshlar gohida bir biriga qo'shilib ikkilanib keladi.¹⁵

qochuvchi - قَارَّ - qochmoq - قَرَّ
sanovchi - عَادَّ - sanamoq - عَدَّ
o'zaymoq - قَلَّ - قَلَّ
tegib ketmoq - مَسَّ - مَسَّ

Gohida bir – biridan ajralib keladi:

tegilgan – مَسَّ - مَسَّ
sanalgan - مَعَدَّدٌ - مَعَدَّدٌ

Ikkilanish har doim ham ro'y bermaydi ba'zi hollarda mustasno bo'lishi ham mumkin, hozir ikkilanish holatlari ro'y berishini ko'rib chiqamiz.¹⁶

I. Agar ikki bir xil undoshning birinchisining harakati qisqa unli bo'lsa (bu holat o'tgan zamonda va boshqa shakllarda uchraydi)

عَادَّ -- عَادَّ قَرَّ -- قَرَّ

II. Ikki bir xil undoshning birinchisining harakati sukunli bo'lsa: (hozirgi – kelasi zamon shaklida qisqa unlili ikki bir xil undosh sukunlangan boshqa bir undoshdan keyin turganda, ikkita bir undosh birlashib, ularning harakati sukun bilan o'rin almashadi ba natijada birinchi undoshning harakati sukunli bo'ladi).

¹⁴ Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. М., 2001. С. 207.

¹⁵ Иброхимов Н.И., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. Т., 1997. 101-бет.

تَفَرُّرٌ – تَفَرُّرٌ – تَفَرُّرٌ – يَمَسُّسُ – يَمَسُّسُ -- يَمَسُّسُ

Ikkilanish holatlari quyidagi holatlarda ro'y bermaydi:

I. Agar ikki bir xil undoshning ikkinchisining harakati sukun bo'lsa:

تندودن , يمسسن , يفررن

II. Agar ikki bir xil undoshning birinchisining harakati cho'ziq unli bo'lsa:

معدود , محبوب , ممدود

III. II va V hosila bob shakllarida ikki bir xil undoshning birinchisi ikkilanganda tabiiyki, ikkinchisi ikkilanmaydi:

yotmoq, cho'zilmoq - يمدد V, kamaytirmoq - قلل II

Ikkilangan fe'llarni I – bobning o'tgan zamonida tuslashda uning ikkinchi undoshining harakatini aniqlash uchun lug'at kitoblariga murojaat qilamiz. Masalan: قد(a/y)- yirtmoq, o'ymoq fe'lida qavs ichida kelgan birinchi unli (a) ikkilangan fe'lning 2- undoshining o'tgan zamondagi harakati va ikkinchi kelgan unli (y) esa bu fe'lning hozirgi – kelasi zamonidagi 2- undoshning harakatidir.¹⁷

قددت, قددت, قددت, أقد, تقد, تقدین

Ikkilangan fe'lga yana bir misol tariqasida quyidagi fe'lni o'tgan zamonda tuslab ko'ramiz.¹⁸

(قَلَّ) fe'lining o'tgan zamonda tuslanishi:

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مُذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مُذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	قَلَّتْ
	قَلَّ	قَلَّتْ	قَلَّتْ	قَلَّتْ	

¹⁷ Лебедев В.Г. Чурева Л.С. Практический курс арабского литературного языка. 1- част. М., 2005. С. 121.

ثَنِيَّةٌ	قَلًّا	قَلَّتَا	قَلَلْتُمَا		قَلَلْنَا
جَمْعٌ	قَلُّوا	قَلَلْنَ	قَلَلْتُمْ	قَلَلْتُنَّ	

Bu turdagi fe'llarning ba'zilarining o'rta unli qisqa harfi boshqa turda ham bo'ladi bu biroz vaznning o'zgarishiga sabab bo'ladi.

(مَسَّ) fe'lining o'tgan zamonda tuslanishi:

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَسِيئَةٌ
	مَسَّ	مَسَّتْ	مَسِيئَتَ	مَسِيئَتِ	
ثَنِيَّةٌ	مَسَا	مَسَّتَا	مَسِيئَتُمَا		مَسِيئَنَا
جَمْعٌ	مَسُّوا	مَسِيئَنَ	مَسِيئَتُمْ	مَسِيئَتُنَّ	

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, ayrim shaxs- sonda bir xil o'zak undoshlar uyushgan. Bunday uyushishagar ular orasidagi unli qisqa bo'lsa va u unli ochiq bo'g'inni tashkil etsa sodir bo'ladi. Masalan:

قلا - قلا - قلت - قلت va h.k

Agar bir xil ikki undoshning ikkinchisi sukunli bo'lsa va u bo'g'inni yopayotgan bo'lsa, uyushish sodir bo'lmaydi. Masalan:

قللن - قللن

(مَدَّ) fe'lining hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi:

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مُذَكَّرٌ	مُؤنَّثٌ	مُذَكَّرٌ	مُؤنَّثٌ	أَمْدٌ
	يَمْدٌ	تَمْدٌ	تَمْدٌ	تَمْدِيْنٌ	
تَشْبِيْهٌ	يَمْدَانٌ	تَمْدَانٌ	تَمْدَانٌ		نَمْدٌ
جَمْعٌ	يَمْدُوْنَ	يَمْدُدْنَ	تَمْدُوْنَ	تَمْدُدْنَ	

Yuqorida biz arab tilidagi to`g`ri fe`llarning turlari va ularning o`tgan va hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi, o`ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha to`xtalib o`tdik. Arab tili grammatikasida yana shunday fe`llar bor ki ular tilning o`ziga xos xususiyatiga yanada o`ziga xoslik qo`shib turadi. Bu turdagi fe`llar noto`g`ri fe`llardir. Noto`g`ri fe`llar bu tarkibida illatli harflar و ي yoki ular o`rnida keluvchi l mavjud bo`lgan fe`llarga aytiladi. Bu turdagi fe`llar و va ي undoshining tushib qolishi yoki boshqa tovushga o`zgarishi bilan bog`liq bo`lgan ayrim xususiyatlarga ega. Illatli harflar fe`lning qaysi o`zak undosh o`rnida kelishiga qarab noto`g`ri fe`llar besh qismga bo`linadi.

1. Solimsifat fe`l (الفِعْلُ الْمِثَالُ)
2. Ajvaf fe`l (الفِعْلُ الْأَجْوَفُ)
3. Noqis fe`l (الفِعْلُ النَّاقِصُ)
4. Lafif fe`l (لَفِيفٌ مَّفْرُوقٌ)
5. Multaviy fe`l (لَفِيفٌ مَّفْرُوعٌ)¹⁹

الفِعْلُ الْمِثَالُ

¹⁹ Иброхимов Н.И., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. Т., 1997. 120-бет.

Fe'ning birinchi o`zak undoshi illatli harfdan iborat bo`lsa bunday fe`llar **الفِعْلُ المِثَالُ** misal fe`llar deb nomlanadi.

Masalan:

وَصَلَ – yetib kelmoq

يَتِمَّ – yetim bo`lmoq

Bu turdagi fe`llarning shaxslarda tuslanishi solim fe`llar bilan bir xil.

(وَصَلَ) fe'lining o`tgan zamonda tuslanishi:

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مَذْكُرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذْكُرٌ	مُؤَنَّثٌ	وَصَلْتُ
	وَصَلَ	وَصَلْتَ	وَصَلْتَ	وَصَلْتِ	
تَنْبِيْهٌ	وَصَلَا	وَصَلْتَا	وَصَلْتُمَا		وَصَلْنَا
جَمْعٌ	وَصَلُّوا	وَصَلْنِ	وَصَلْتُمْ	وَصَلْتُنَّ	

Solimsifat fe`llarning hozirgi-kelasi zamonda tuslanishida bir qancha o`ziga xoslik mavjud bu o`ziga xoslik asosan qisqa unilarning tushib qolishi va o`zgarishi bilan harakterlidir.

Agar fe'ning birinchi o`zak undoshi و vov harfidan iborat bo`lsa va ikkinchi o`zak undoshning harakati fatha bo`lsa, bunday fe`llar solim fe`llar kabi tuslanadi.

(وَصَلَ) fe'lining hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	أَوْصَلَ
	يُوصَلُ	تَوْصَلُ	تَوْصَلُ	تَوْصَلِينَ	
تَثْنِيَّةٌ	يُوصَلَانِ	تَوْصَلَانِ	تَوْصَلَانِ		تَوْصَلَ
جَمْعٌ	تَوْصَلُونَ	يُوصَلْنَ	تَوْصَلُونَ	تَوْصَلْنَ	

Birinchi o`zak undoshi و vov harfidan iborat bo`lgan yana ayrim fe`llarning hozirgi-kelasi zamonida bu undosh tushib qoladi.

وَضَعَ – qo`ymoq

وَقَعَ – yiqilmoq, joylashmoq

وَهَبَ – bermoq kabi fe`llarda yuqorida sanab o`tilgan holat yuz beradi.

(وَهَبَ) fe'lining hozirgi-kelasi zamonda tuslanishi

	غَائِبٌ		مُخَاطَبٌ		مُتَكَلِّمٌ
مُفْرَدٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	مَذَكَّرٌ	مُؤَنَّثٌ	أَهَبُ
	يَهَبُ	تَهَبُ	تَهَبُ	تَهَيِّبِينَ	
تَثْنِيَّةٌ	يَهَبَانِ	تَهَبَانِ	تَهَبَانِ		تَهَبُ
جَمْعٌ	يَهَبُونَ	يَهَبْنَ	تَهَبُونَ	تَهَبْنَ	

